




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi:
№ BD- GMII205

2022 yil "25" avgust



SamDU rektori:
R.I.Xalmuradov

GIDROMETEOROLOGIYAGA KIRISH FAN DASTURI

| | |
|--------------------|-------------------------------|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar soha |
| Ta'lim sohasi: | 140000 – Tabiiy fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60520100 – Gidrometeorologiya |

| Fan/modul kodi GMI1205 | | O'quv yili 2022-2023 | Semestr 2 | ECTS – Kreditlar 4 | |
|----------------------------|--|--|------------------------------|------------------------------|--|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lif tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 3 | |
| 1. | fan nomi Gidromexanika | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lif (soat) | Umumiy (soat) | |
| | | 48 | 72 | 120 | |
| 2. | I. Fanning mazmuni | Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga gidromexanikaning nazariy va amaliy asoslarini, o'zan oqimi dinamikasi hamda tabiiy o'zanlarda kechadigan jarayonlar qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat. | | | |
| | | Fanning vazifasi - talabalarga suyuqliklar kinematikasi va dinamikasining nazariy asoslarini, turbulentlik nazariyasini, tabiiy o'zanlardagi qarshilikni, tezlik va uning taqsimlanishini, oqiziqlar harakati qonunlarini o'rgatish va ularni amalda qo'llay bilish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat. | | | |
| | II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) | | | | |
| | II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: | | | | |
| | 1-mavzu. Gidromexanika. Kirish. "Gidromexanika" fani, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti | | | | |
| | <i>Suyuqlik kinematikasi.</i> Suyuqliklar harakatini o'rganishning ikki usuli. Maydon nazariyasining asosiy tushunchalari. | | | | |
| | 2-mavzu. Jismlar va ularning xossalari. Donador va to'lqinsimon g'adir-budurlik. Gidravlik qarshilik koeffitsiyentining Renolds soniga bog'liqligi. Tekislik va tog' daryolarida qarshilikni hisoblash usullari. | | | | |
| | 3-mavzu. Gidromexanika asosiy farazlar va qonunlar | | | | |
| | Reynoldsning kichik soni uchun Nave-Stoks tenglamasini taqribiy yechimi. Reynolds soni katta bo'lgan hol uchun Nave-Stoks tenglamasini taqribiy yechimi. Plastinkadagi chegaraviy qatlam. | | | | |
| | 4-mavzu. Muhit xususiyatlarining o'zgarish tezligi | | | | |
| | Suyuqlik va gazlar. Suyuqlik va gazlarning oddiy modellari: a) ideal suyuqlik modeli; b) yopishqoq suyuqlik modeli. | | | | |
| | 5-mavzu. Ideal suyuqlikning | | | | |
| | Eyler va Gromeko-Lamb ko'rinishidagi harakat tenglamalari. Ideal suyuqlik harakatining masalasini umumiy qo'yilishi. | | | | |
| | 6-mavzu. Suyuqliklar va ularning asosiy fizik hususiyatlari | | | | |
| | Gelmgolsning uyurma paycha intensivligi haqidagi teoremasi. Tezlik sirkulyatsiyasi. Stoks teoremasi. Suyuqlikdagi sof deformatsiya va undagi deformatsiya tezligi tensori. Chekli hajmli tutash muhitning harakat miqdorini o'zgartirish qonuni. Massaviy va sirtqi kuchlar. | | | | |
| | 7-mavzu. Gidrostatika. | | | | |
| | Daryolar o'zanini tasniflash tamoyillari (K.N.Rossinskiy, I.A.Kuzmin ishlari). O'zan tiplarining hosil bo'lish sabablari (B.F.Snishenko ishlari). Tog' daryolari o'zan tiplari, ularning nishablik va oqim kinetikligiga bog'liqligi | | | | |

(A.N.Kroshkin ishlari). Tog' daryolarida bo'ladigan sellarning o'zan jaryonlariga ta'siri. «Oqim-o'zan»—o'zaro boshqariladigan tizim. Daryo o'zanining gidromorfometrik tafsiflari: V.G.Glushkov, S.I.Ribkin, S.T. Altunin, M.A.Velikanov, V.N.Mixaylov bog'lanishlari. Daryo o'zanining mustahkamligi. V.M.Loxtin soni. Daryolarni o'zan mustahkamligi darajasi bo'yicha tasniflash. O'zan hosil qiluvchi suv sarflari. O'zan buzilishlarini hisoblash tenglamalari sistemasi, xususiy yechimlari.

8-mavzu. Gidrodinamika.

Daryolar o'zanining morfologiysi va dinamikasi. Daryolarning sayoz qismlari, hosil bo'lish sharoitlari, morfologik elementlari. Kelib chiqishi, morfologiyasi, qayta hosil bo'lishi va harakatchanligi bo'yicha tasniflari. Nisbatan to'g'ri va tarmoqlanmagan o'zanlar. Daryolar burilishi, hosil bo'lishi. Ta'sir etuvchi omillar. Daryo o'zani, tarmoqlanishi, orolchalar hosil bo'lishi. Suv sarfini tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi hisoblash. Daryolarning qo'shilish joyida kechadigan o'zan jarayonlari. Daryolarning qo'yilishi va unda kechadigan o'zan jarayonlari. Daryo deltalari turlari. Rivojlanish bosqichlari. Kichik daryolar va ularda kechadigan o'zan jarayonlarining o'ziga hos zesusiyatlari. Daryo qayirlari. Qayirlarning hosil bo'lish sharoiti va mexanizmi, tiplari va ularning o'zan jaryonlari bilan bog'liqligi. Kayirlar kengligi va balandligining o'zgarish qonuniyatları, tuzilishi. Qayirlarning o'zan buzilishiga ta'siri.

9-mavzu. Suyuqliklarning yopishqoqligi.

Yopishqoq suyuqlikning Nave-Stoks tenglamasi. Chegaraviy shartlar.

Ideal suyuqlik harakati tenglamasini birinchi integrallari: Bernulli va Lagranj-Koshi integrallari, ularni tatbiqi masalalarga qo'llanishi.

Reynolds soni.

10-mavzu. Suyuqliklarning laminar va turbulent harakati

Daryo va kanallarda suv oqimi harakati tartibi va turlari. Suv yuzasi egrи chizig'i turlari: pasayish egrи chizig'i va dimlanish egrи chizig'i. Ko'chish to'lqinlari va o'zgaruvchan harakatda uning turlari. Gidrodinamikaning tabiiy o'zanlarga oid masalalarini yechishda qo'llaniladigan asosiy tenglamalari (suv sarfi doimiyligi tenglamasi, o'zgarmas va o'zgaruvchan harakat tenglamalari, Bernulli tenglamasi)ni qo'llash. Tabiiy o'zanlardagi gidravlik qarshiliklar. Oqim energiyasining yo'qotilishi, energiyaning mahalliy yo'qotilishi va ularni hisoblash. Gidravlik nishablik. Tekislik va tog' daryolarida sokin va shiddatli oqimlar. Tabiiy o'zanlarda gidravlik sakrash va gidravlik sharsharalar.

Turbulentlik nazariyasi. Turbulent o'zan oqimning kinematik tarkibi, asosiy ko'rsatkichlari. Turbulentlikni tajribalar o'tkazish yo'li bilan o'rganish. Turbulentlik jadalligi va miqyosi. Yassi va bir o'lchamli oqim. Turbulent qo'zg'alish spektri. Harakat miqdorining ko'chish sxemasi. Turbulent oqimdagи yirik miqyosli girdoblar. Turbulentlikning kinetik energiyasi. Turbulentlikning yarimempirik nazariyasi. Turbulent oqim gipotezasi va modeli. Turbulent oqimning statistik tafsifi. Turbulent diffiuziyaning statistik nazariyasi. Tabiiy oqimda tezlikning taqsimlanishi. Tezlikning muz ostida taqsimlanishi.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Suyuqlik kinematikasi, suyuqliklar harakatini o'rganishga oid misollar yechish.
2. Gelmgols va Stoks teoremlariga oid misollar yechish.
3. Yopishqoq suyuqlikning Nave-Stoks tenglamasiga oid misollar.
4. Bernulli va Lagranj-Koshi integrallari va ularning tatbiqiylar masalalarga qo'llanishi.
5. Reynolds tenglamasi, turbulent oqimning oddiy modellariga oid misollar yechish.
6. Turbulent rejimli yassi oqimning dinamik parametrlarini hisoblash.
7. Oqimning kritik chegara tezliklarini hisoblash: birikmagan gruntlar uchun; birikkan gruntlar uchun.
8. Suv oqimining loyqa oqiziqlarni ko'chirish qobiliyatini hisoblash.
9. Suv omborlarining loyqa oqiziqlar bilan to'lish muddatini hisoblash.
10. Tuproq-grunt o'zanli yirik kanallarning gidravlik parametrlarini hisoblash.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

1. Suyuqliklar kinematikasi.
2. Suyuqliklar dinamikasi.
3. Suyuqlikda uyurma va potensial harakat.
4. Stoks teoremasi.
5. Ideal suyuqliklar harakatining Eyler va Gromeko-Lamb tenglamalari.
6. Yopishqoq suyuqlikning Nave-Stoks tenglamasi.
7. Bernulli va Lagranj-Koshi integrallari.
8. Daryo o'zani ko'ndalang qirqimining gidravlik parametrlarini aniqlash.
9. Daryoda suvning oqish tezligini o'lchash.
10. Tog' daryolari suvida mavjud bo'lgan loyqa oqiziqlar sarfini aniqlash.
11. Daryo oqiziqlarini fraksiyalar bo'yicha guruhlash.
12. Suv ombori tubiga cho'kan loyqa oqiziqlar miqdorini baholash.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiylar)

Fanni o'zlashtirishi natijasida talaba:

- gidromexanikaning asosiy gipotezalarini, suyuqlik kinematikasi va dinamikasini, suyuqlikda uyurma va potensial harakat qonunlarini, Stoks teoremasini, ideal hamda yopishqoq suyuqliklarga xos bo'lgan xususiyatlarni, Eyler, Gromeko-Lamb va Nave-Stoks tenglamalarini, Bernulli va Lagranj-Koshi integrallarini, Reynolds tenglamasini, o'zan oqimi dinamikasi va o'zan jarayonlari qonuniyatlarini *bilishi kerak*;
- hidrostatika, suyuqliklar kinematikasi va dinamikasiga oid masalalarni yechish, daryolarning loyqa oqiziqlarini miqdoriy baholash, suv omborlarining loyqa oqiziqlar bilan to'lish jadalligini hisoblash va bu ishlarni amalga oshirishda hidromexanika hamda o'zan oqimi dinamikasining asosiy qonunlari va tenglamalarini qo'llay olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*;
- Eyler, Nave-Stoks, Bernulli va Lagranj-Koshi integrallarini tadbiqiylar masalalarga qo'llash, laminar va turbulent oqimlarning oddiy modellarini

| | |
|----|---|
| | tuzish, Bernulli tenglamarasidan ochiq o'zanlardagi gidravlik qarshiliklarni hamda suv sarfini hisoblashda foydalana olish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i> |
| 4. | <p>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • "Bumerang", "YOlpig'ich", "Aqliy xujum", "Masofaviy ta'lif", "Zanjir", "Klaster" hamda "Muammoli ta'lif" texnologiyasining "Munozarali dars" kabi usullarini |
| 5. | <p>VII. Kreditni olish uchun bakalavr:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriglarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish</p> |
| 6. | <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Barishnikov N.B., Popov I.V. Dinamika ruslovix potokov i ruslovie protsessi. - L.: Gidrometeoizdat, 1988. 2. Barishnikov N.B. Rukovodstvo k laboratornym rabotam po dinamike ruslovix potokov i ruslovim protsessam. - L.: Gidrometeoizdat, 1991. 3. Buxgols N.N. Osnovnoy kurs teoreticheskoy mexaniki. Ch.1,2. M.: Nauka, 1972. 4. Kondratev N.Ye., Popov I.V. Snishenko B.F. Osnovi gidromorfologicheskoy teorii ruslovogo protsessa. -L. Gidrometeoizdat, 1982. 5. Yablonskiy V.S. Kratkiy kurs texnicheskoy gidromexaniki. -M.: FM. 1961. Hikmatov F.H., Yakubov M.A., Aytbayev D.P. O'zan jarayonlari va o'zan oqimi dinamikasi. -Toshkent: Universitet, 2004. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Goncharov V.N. Dinamika ruslovix potokov. -L.: Gidrometeoizdat, 1962. 7. Grishanin K.B. Teoriya ruslovogo protsessa. - M.: Transport, 1972. 8. Makkaveev N.I., Chalov R.S. Ruslovye protsessi. -M.: Izd-vo MGU, 1986. 9. Znamenskaya N.S. Donnie nanosi i ruslovie protsessi. -L.: Gidrometeoizdat, 1976. 10. www.undp.uz (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi Veb-sayti). 11. www.Zivo.net |
| 7. | Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2022 yil " " -son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ullar: Sh G'aniyev – SamDU, "Gidrometeorologiya" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | Taqrizchilar: F.Hikmatov – O'zMU, "Quruqlik hidrologiyasi" kafedrasi professori, g.f.d. (tashqi) S.A.Xaydarov – SamDU, "Gidrometeorologiya" kafedrasi mudiri dotsent, PhD (ichki) |

Fanning o‘quv dasturi Gidrometeorologiya kafedrasining 2022 yil “29” avgustdagi №1-son yigilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

dots. S.A.Xaydarov

Fanning o‘quv dasturi fakul’tet o‘quv-uslubiy kengashining 2022 yil “30” avgustdagi №1-son yigilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fakultet uslubiy kengashi raisi:

dots. B.Fayzullayev

Fanning o‘quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2022 yil “30” avgustdagi № 1-sonli bayonnomma)

Fakultet dekani

dots. A.X.Ravshanov

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha fan dasturi sillabuslarni xorij tajribasini o‘rgangan holda transformatsiya qilish bo‘yicha ishchi guruh:

Rais: M.E.Mo’minov

imzo

a’zo: B.Sh.Safarov

imzo

Kelishildi:

O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i dots. Sh.Muranov ,

O‘quv ishlari bo‘yicha prorekтор

prof. A.Soleev

